CHET TILI DARSLARIDA SUN’IY INTELEKTDAN UNUMLI FOYDALANISH

[a]Bo‘ribayeva Sharofat Abduraxmanovna
[a]Xalqaro Nordik Universiteti κatta o‘qituvchisi

[b]Dilorom Israilova Shomaxamatovna
[b]Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya
Mazkur maqolada chet tili darslarini samarali tashkil etishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan unumli foydalanish xususida gap ketadi. Unda dars jarayonida til o‘rganuvchilarning bilim darajasiga mos mashq va topshiriqlarni tanlash hamda ularni yaratishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan unumli foydalanish masalalari yoritiladi. Maqolada sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari bilan bir qatorda, uning ta’lim tizimidagi ayrim muammolari ham tahlil etiladi

Kalit so’zlar*: sun’iy intellekt, o‘quv mashg‘uloti, darsning samaradorligi, mashq va topshiriqlar, pedagogik texnologiya, til o‘rganuvchilar.*

KIRISH

Bugungi kunda yoshlarimiz o‘rtasida chet tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Inson qanchalik ko‘p xorijiy tilni bilsa, shunchalik unda ko‘p imkoniyatlar eshigi ochilladi va kasbiy rivojlanishda ulkan zafarlarga erishishi tabiiy hol.

Ayni vaqtda mamlakatimizda chet tillarni o‘rgatishga qaratilgan e’tibor yoshlarimizning raqobatbardosh kadrlar bo‘lib yetishishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu borada so‘nggi yillarda respublikamizda chet tillarni takomillashtirish va ta’lim sifatini yuqori bosqichga olib chiqish borasida talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol tariqasida davlatimiz rahbari raisligida chet tillarni o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishini aytib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ushbu videoselektorda prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bugungi kunda chet tillarni o‘rganishni ustivor vazifa sifatida belgilab olinganini alohida ta’kidladi va quyidagilarni bayon qildi: “Mamlakatimizda xorjiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim.” [1], Darhaqiqat chet tillarni mukammal egallagan mutaxassislarning mamlakatimiyning rivojlanishiga qo‘shadigan hissasi juda kattadir. Bunday mutaxassislarni tayorlash uchun mamlakatimizda ko‘pgina islohotlar amalga oshirilayotgani quvonarli hol.

Xorijiy tillarni amaliy egallashda chet tili darslarida sun’iy intelektdan unumli foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Darsni samarali tashkillashtirishda bugungi kunda sun’iy intelektdan foydalanish davr talabiga aylanib bormoqda. Sun’iy

intelektni chet tili darslariga tatbiq qilinishi nafaqat talaba yoshlarga balki professor - o‘qituvchilarga ham juda katta qulayliklar yaratib bermoqda.

„Sun’iy intelekt informatikaning alohida sohasi bo‘lib odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shuq‘ullanadi”. [2, B. 72] Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar, xususan chatbotlar, til o‘rganishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. “Raqamli transformatsia davrida ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’limni ta’minlash eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda”. [3, B. 222-223]Shu bois sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga ko‘proq jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Darsni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi til o‘rganuvchilar bilimi, qiziqishi va yoshidan kelib chiqgan holda o‘quv materiallarini to‘g‘ri tanlay olishi juda muhim omillardan biridir. Bundan tashqari har bir o‘qituvchi o‘z darslarini hozirgi zamon talabiga javob beradigan pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtira olishi ham hozirgi zamon talablaridan biridir. “Pedagogik texnologiya o‘qitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir. O‘quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o‘quvchi yoki talabalarning kuchiga, o‘zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va xajmini o‘zgartirish ham ta‘lim texnologiyasiga daxldor”. [4] Chet tili darslarida darslikda berilgan materiallarga turli topshiriqlar berish yoki berilgan matnlarni til o‘rganuvchilar bilim darajasiga moslab o‘quv mashg‘ulotiga tatbiq qilishda sun’iy intelekt o‘qituvchining eng yaqin yordamchisiga aylanib borayotgani quvonarli hol. Bunda o‘qituvchilar nafaqat vaqtdan yutadilar, balki sun’iy intelekt yordamida tayorlangan materiallar orqali darsni qisiqarli va samarali o‘tishiga muvaffaq bo‘ladilar.

Darsliklardagi mashq va topshiriqlarni talabalar bilimiga hamda qiziqishlariga moshlashtirish ham ijobiy samaralar garovidiridir. ”Dars jarayonini biz qanchalik ko‘p til o‘rganuvchilar faoliyatiga mo‘ljallab tashkillashtirsak, o‘quv jarayoni shunchalik darajada muvaffaqiyatli va esda qolarli bo‘ladi”. [5, B. 12] Bundan tashqari ularning darsdagi ishtiroki ortadi. Bu esa darsni tashkillashtirish eng muhim bo‘lgan prinsiplardan biridir. “Til o‘rganuvchilarning faolligi darsni tashkillashtirish prinsiplaridan biri bo‘lib, unda til o‘rganuvchilar darsda va o‘quv jarayonida imkon qadar faol ishtirok etishlari kerak”. [6, B. 144] Shuning uchun darslikda berilgan ba‘zi mashq va topshiirqlarni talabalarning darsda ishtirokini faollashtirish va darsni samarali tashkillashtirishda maqsadida o‘zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko’pgiha hollarda darslikda berilgan materiallar qiyinligi sababli til o‘rganuvchilarning motivatsiyasi pasayishi kusatiladi. Agar o‘qituvchi oddiygina ChatGPT yordamida o‘quv materialini soddalashtirsa yoki uni vasiyatga qarab murakkablashtirsa bu ham dars samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir.

Ba’zida esa topshiriqlarni bajarish uchun etarli mashqlar darslikda berilmaydi. Barchamizga ma’lumki, topshiriqlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun imkon qadar ko‘proq mashqlar bajarish darkor. Avallari bunday mashlarni toppish uchun nashr qilingan boshqa manbaalarni topib, unlarni kompyuterda yozib keyun talabalarga taqdim qilinar edi. Ozirgi kunda esa sun’iy intelekt dir necha coniyalarda

tayorlab beradi. Faqatgina o‘qituvchidan undan oqilona foydalanish va bilim talab qilinadi. Sun’iy intelektdan o‘quv jarayonida foydalanishning bir necha ijobiy tomonlari hususida to‘xtalib o‘tdik. Ammo uning salbiy tomonlari ham mavjud bo‘lib, o‘qituvchi sifatida doimo AI yordamida tayyorlangan materiallarni tekshirib borish va to‘qri promt berishga ahamiyat berish kerak. Aks holda noto‘qri ma’lumotlarni o‘quv jarayoniga olib kirish hafi juda kattadir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, sun’iy intellekt chet tili darslarini samarali tashkil etishda hamda o‘quv mashg‘ulotlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, u o‘qituvchilarga vaqtni tejash, interaktiv metodlarni qo‘llash va ta’lim jarayonini yanada qiziqarli hamda samarali qilish imkonini beradi. Sun’iy intellektdan oqilona va maqsadli foydalanish zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021 yil 6 maydagi “Chet tillarini o’qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari” yuzasidan o’tkazilgan videoselektor yig’ilishidagi nutqi.https://yuz.uz/news/prezident-xorijiy-tillarni-orgatish-boyicha-kelajak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni-yolga-qoyish-vaqti-soati-keldi

2. Xayrullayeva G.Sun’iy intelekt va adabiy ta’lim. Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali. worldlyknowledge nashriyoti. 2 dekabr, 2024.

3. Jumaboyeva G., Maxmudova D. Sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga ta’siri // *Obrazovanie, nauka i innovatsion ideyalar v mire* jurnali. – 2025/79

4. http:// l.tfi.uz/images/Pedagogik_texnologiyalar_va_pedagogik_mahorat_1_ efb2d.pdf

5. Funk H., Kuhn Ch., Skiba D., u.a. Aufgaben, Übungen, Interaktion Klett-Langenscheidt. München-2014

6. Ende K., Grotjahn R., Kleppin K., Mohr I. Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung.Goethe-Institut, München-2013